

ODIL YOQUBOV ADABIY-ESTETIK QARASHLARIDA VOQELIKNING BADIY TALQINI

Tursunova Gulzona

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20823625>

Annotatsiya. Maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yetuk namoyandasi Odil Yoqubov adabiy-estetik qarashlari tizimida voqelikning badiiy talqin etilishi masalasi tadqiq qilingan. Adibning "So'z" kitobidagi nazariy mulohazalari, "Ulug'bek xazinasi" va "Diyonat" romanlarining kompozitsion-badiiy xususiyatlari hamda zamonaviy adabiyotshunoslik prinsiplari asosida muallifning estetik konsepsiyasi ochib berilgan. Tadqiqotda adib ilgari surgan "hayot haqiqatiga asoslangan optimizm" va fojaviylik kategoriyalarining o'zaro dialektik aloqasi, ularning qahramon konsepsiyasini belgilashdagi o'rni avtobiografik va tizimli-tahlil metodlari vositasida yoritilgan. Shuningdek, yozuvchi realizmining sotsialistik realizm qoliplaridan farqli jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: badiiy talqin, hayot haqiqati, optimizm, fojaviylik, insonlik sha'ni, realizm, sotsialistik realizm, katarsis, avtobiografik metod.

Abstract. The article examines the issue of artistic interpretation of reality in the system of literary and aesthetic views of the outstanding representative of 20th-century Uzbek literature, Odil Yakubov. The author's aesthetic concept is revealed based on the writer's theoretical considerations in the book "Word", the compositional and artistic features of the novels "The Treasure of Ulugbek" and "Diyonat", and the principles of modern literary criticism. The study sheds light on the dialectical relationship between the categories of "optimism based on the reality of life" and tragedy put forward by the writer, their role in determining the concept of the hero, using autobiographical and systematic-analytical methods. Also, the aspects of the writer's realism that differ from the patterns of socialist realism are scientifically substantiated.

Keywords: artistic interpretation, reality of life, optimism, tragedy, human dignity, realism, socialist realism, catharsis, autobiographical method.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос художественной интерпретации реальности в системе литературно-эстетических взглядов выдающегося представителя узбекской литературы XX века Одиля Якубова. Эстетическая концепция автора раскрывается на основе теоретических размышлений писателя в книге «Слово», композиционно-художественных особенностей романов «Сокровище Улугбека» и «Дионат», а также принципов современной литературной критики. Исследование освещает диалектическую взаимосвязь между категориями «оптимизма, основанного на реалиях жизни» и трагедии, выдвинутыми писателем, их роль в определении концепции героя, используя автобиографический и систематически-аналитический методы. Также научно обоснованы аспекты реализма писателя, отличающиеся от образцов социалистического реализма.

Ключевые слова: художественная интерпретация, реалии жизни, оптимизм, трагедия, человеческое достоинство, реализм, социалистический реализм, катарсис, автобиографический метод.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotshunosligi va badiiy tafakkurida adabiyotni mafkuraviy tazyiqlardan xalos etish hamda hayotiy reallikni xolis aks ettirish tamoyili yetakchi tendensiyaga aylandi. Ushbu murakkab davrda milliy adabiyotda realizm prinsiplarini himoya qilish va inson konsepsiyasini yangi bosqichga ko'tarishda Odil Yoqubov ijodiy hamda adabiy-estetik faoliyatining o'rni beqiyosdir. Adib o'zining publitsistik chiqishlari va adabiy-tanqidiy maqolalarida davrning dolzarb estetik muammolarini dadil o'rtaga tashladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – Odil Yoqubov estetik olamida voqelikning badiiy talqin qilinish xususiyatlarini, xususan, "hayot haqiqatiga asoslangan optimizm" hamda fojiaiylik kategoriyalari misolida yaxlit tizim sifatida tadqiq etishdan iborat. Mavzuning ayrim qirralari uzoq yillar davomida U. Normatov, O. Sharafiddinov, A. Rasulov kabi taniqli olimlar tomonidan tahlil qilingan bo'lsa-da, biroq adibning optimizm va fojiaiylik haqidagi qarashlari yagona estetik konsepsiya hamda muallifning biografik tajribasi kontekstida maxsus o'rganilmagan. Ushbu holat tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotning realistik asoslarini aniqlashda Odil Yoqubovning "So'z" kitobiga jamlangan adabiy-estetik qarashlari birlamchi manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, adibning "Ulug'bek xazinasi" va "Diyonat" romanlari tahliliy obyekt sifatida jalb etildi. Munaqqid X. Abdusamatov, munosabat bildirilgan davriy manbalar, U. Normatovning xotira-esselari yordamchi material sifatida foydalanildi.

Ishda yozuvchi shaxsiyati va uning badiiy prinsiplari shakllanishi qonuniyatlarini ochish uchun **avtobiografik metod**, ustoz A. Qahhor an'analari davomiyligini ko'rsatishda **biografik-genetik**, davr mafkurasi ta'sirini baholashda **tarixiy-madaniy** hamda matn osti ma'nolarini tizimlashtirishda **matniy-germenevtik** metodlar uyg'unligidan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

Hayotiy voqelik va soxta optimizm inqirozi

Odil Yoqubov badiiy olamida voqelikni aks ettirish muammosi to'g'ridan-to'g'ri davrning yetakchi adabiy metodi — sotsialistik realizm prinsiplariga munosabat jarayonida kechdi. Sho'ro adabiyotidagi hayotni bo'yab ko'rsatish, muammosizlik (konfliktsizlik) nazariyalariga qarshi o'laroq, adib realizmning tub mohiyatini boshqacha tushundi: "Optimizm bilan optimizmning farqini tushunmoq kerak. Bizga shunchaki optimizm emas, balki hayot haqiqatiga asoslangan optimizm lozim" [1].

Adib ilgari surgan "hayot haqiqatiga asoslangan optimizm" — voqelikdagi fojialardan ko'z yummaslik, aksincha, jamiyatning eng og'riqli va qaltis nuqtalarini badiiy tasvirlash orqali kitobxonda estetik poklanish (katarsis) uyg'otishdir. Bu qarash yozuvchi ijodiy metodining asosi bo'lib, voqelikni badiiy umumlashtirishning bosh mezoni hisoblanadi.

Fojiaiylik va inson konsepsiyasi

Yozuvchi estetikasida inson obrazi va uning fojiaiy qismati o'zaro sintezda namoyon bo'ladi. Adib nazariyasida qahramonning qadri uning xatolardan xoli, ideal darajada mukammalligida emas, balki hayotning keskin burilishlarida, hatto jismonan halokatga yuz tutganda ham o'z insoniy mohiyati va ma'naviy qadr-qimmatini saqlab qolishida ko'rinadi. Fojiaiylik tushunchasining bunday talqin qilinishi adib asarlaridagi qahramonlar konsepsiyasining estetik poydevorini tashkil etadi.

Tarixiy-biografik kontekst va adabiy ta'sir

Avtobiografik metod imkoniyatlari doirasida tahlil qilinganda, Odil Yoqubovning mazkur prinsiplari shunchaki nazariy xulosalar emas, balki uning shaxsiy hayotiy tajribasi va adabiy muhit darslarining mahsulidir. Adib o'z ustoz A. Qahhorning hayot haqiqatiga sodiqligi tufayli

sho'ro mafkurachilari tomonidan muntazam tazyiqqa uchraganini yaqindan kuzatgan. Xususan, tanqidchi H. Abdusamatov yozuvchini "Sarob" romanida Saidiy kabi ikkilanuvchi shaxslar obrazini bo'rttirishda va sovet voqeligini buzib ko'rsatishda ayblagan edi [2].

Sotsialistik realizm qoliplari o'lim va mag'lubiyat tasvirini inkor etar, yorqin kelajakka ishonchni majburiy talab qilib qo'yar edi. Bu kabi adolatsizliklarni ma'naviy jihatdan yashab o'tgan Odil Yoqubov insonlik sha'nini hayot va o'lim mezonlaridan yuksak qo'yuvchi o'ziga xos estetik tizimini yaratdi.

"Ulug'bek xazinasi" romani tahlilida fojiviylik va katarsis

Adib o'zining adabiy-estetik prinsiplarini tarixiy va zamonaviy mavzudagi asarlarida to'la namoyon etdi. Adabiyotshunos U. Normatov o'z xotiralarida 1972-yilda "Ulug'bek xazinasi" romani muhokamasida asardagi tarixiy xiyonat va sarosimalar zamonaviy turg'unlik davri voqealariga qiyoslanganda yuzaga kelgan mafkuraviy xavfni eslaydi. Muhokamadan so'ng adib: *"Siz tanqidchilar bunaqa talqinlardan tiyilib turinglar; agar shu gaplar yuqoriga yetib borgudek bo'lsa, romanning nashri tappa-taq to'xtaydi"* deb xavotirlangan edi [3]. Bu fakt tarixiy mavzu adib uchun ezopcha (satr osti) usulda zamonaviy voqelikni badiiy talqin qilish maydoni bo'lganidan dalolat beradi.

Muhokama jarayonida romanda bosh qahramon o'limining asar o'rtasiga joylashtirilishi tanqid qilinganda, atoqli munaqqid O. Sharafiddinov bu yondashuvni himoya qilib, asarni tashqi sun'iy qoliplar emas, balki ichki badiiy mantiq va fojia qonuniyatlari asosida baholash lozimligini ta'kidlaydi. Mirzo Ulug'bek siymosining fojiali halokati adib talqinida tushkunlik emas, balki ma'rifatning jaholat ustidan ma'naviy g'alabasi sifatida aks etadi. Olim A. Rasulov ta'biri bilan aytganda, *"Ulug'bekning baxti shunda ediki, u mangulik yo'lini tanladi"* [4].

"Diyonat" romanida davr voqeligining estetik in'ikosi

Ushbu estetik prinsip yozuvchining zamonaviy hayot muammolariga bag'ishlangan "Diyonat" romanida ham o'zining mantiqiy davomini topdi. Romandagi Obid Jalilov va professor Shodiyev obrazlari turg'unlik davri jamiyatidagi ma'naviy inqiroz va korrupsiyaga qarshi turuvchi subyektlardir. Obid Jalilov hayotiy sinovlar va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelsa-da, o'zining realistik va diyonatli prinsiplaridan voz kechmaydi. Yoqubov bu o'rinda ham voqelikni bo'yashdan qochib, ijobiy qahramon konsepsiyasini murakkab ijtimoiy sharoitda insonlik sha'nini saqlab qolgan fojiviy xarakterlar vositasida talqin etadi.

Jahon adabiyoti estetikasi bilan sinxronlik

Odil Yoqubov o'z mulohazalarida jahon adabiyotining yirik namoyandalari (Ch. Aytmatov, V. Bykov, N. Dumbadze) ijodiga tez-tez murojaat qiladi. Xususan, belarus adibi V. Bykov qissalaridagi urush fojiasi sharoitida qahramonlarning o'lim qarshisida insoniy qadrini saqlab qolishi tasviri Odil Yoqubovning fojiviylik haqidagi qarashlariga to'la mos keladi. Adib ushbu sinxronlik orqali o'zbek adabiyotidagi realistik mezonlarni umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tardi.

Xulosa

O'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Odil Yoqubov estetik hissi va u ilgari surgan "hayot haqiqatiga asoslangan optimizm" tushunchasi davrning hukmron mafkuraviy qarashlariga zid bo'lib, voqelikni real va tanqidiy idrok etishga xizmat qilgan.
2. Adib adabiy-estetik tizimida fojiviylik tushunchasi tushkunlik ifodasi emas, balki xarakterning ma'naviy matonati va insonlik sha'nini himoya qilishning oliy shakli sifatida talqin etilgan.

3. Mazkur estetik konsepsiyalar adibning shaxsiy va biografik tajribasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning "Ulug‘bek xazinasini" hamda "Diyonat" romanlarida davr va tarix voqeligini badiiy umumlashtirishda yetakchi metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ёқубов О. Сўз. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 169.
2. Абдусаматов Ҳ. Абдулла Қаҳҳор (ҳаёти ва ижоди ҳақида). – Тошкент: "Қизил Ўзбекистон", "Правда Востока", "Ўзбекистони сурх" бирлашган нашриёти, 1957. – Б. 11.
3. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: "Шарқ", 2007. – Б. 108.
4. Расулов А. Бадийлик — безавол янгилик. – Тошкент: "Шарқ", 2007. – Б. 186.